

Buyuk va muqaddas Vatanimiz madhiyasi



Buyuk va muqaddas Vatanimiz madhiyasi

1992 yil 10 dekabr «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan kun.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilinganligiga ham 24 yil to'ldi.

Qonunda madhiyamiz davlat suverenitetining ramzi, unga katta ehtirom bilan qarash har bir yurtdoshimizning vatanparvarlik burchidir deb belgilab qo'yilgan. O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, mamlakatimizda yashab turgan boshqa shaxslar ham madhiyamizni hurmat qilishi shartligi alohida ta'kidlangan.

Davlat madhiyasining muallifi O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov bo'lib, musiqasini O'zbekiston xalq artisti, atoqli bastakor Mutal Burhonov yaratgan. Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o'tmishimiz, milliy an'ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg'ular tarannum etilgan.

Madhiya – qalbida o'z Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usi bor har qanday kishida milliy g'urur, o'ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg'otadi. Bu milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o'yi, maslak-maqsadi mujassam.

O'zbekiston davlat madhiyasi yangraganda, «Serquyosh» so'zi jaranglashi bilan butun vujudimizda ajib entikish, dilimizda cheksiz iftixor tuyg'usini his etamiz. Chunki unda yurtimiz tarovati, buyuk kelajak barpo etish yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan xalqimizning orzu-intilishlari, O'zbekistonimizning jahon hamjamiyatida tobora yuksalib borayotgan obro'-e'tibori, hech kimdan kam bo'lmay, kelajakka qat'iy ishonch bilan intilayotgan yoshlarimizning azmu shijoati aks etgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi madhiyasi yoshlarda Vatanga muhabbat, boy tariximizga, milliy o'zligimizga chuqur hurmatni shakllantirishda, farzandlarimizning har tomonlama barkamol va yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishida muhim tarbiyaviy

vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Inson vujudidagi salomatlik yetmish ikki tomirdagi qon aylanishining mo''tadilligi bilan baholansa, uning jamiyatdagi obro'-e'tibori, odamiylik qiyofasi yana ikki mezonda chamalanadi — Iymon va Vijdon. Zero, iymoni pok odam ezgulikka moyil bo'ladi.

U har doim yon-atrofdagi kishilarga, demakki, yurtiga, Vataniga xizmat qilishni o'zining insoniylik burchi deb biladi. Vijdon uyg'oqligi esa kishini sergaklikka, o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga oid har qanday jarayonga daxldorlik hissini tarbiyalaydi. Bu xislatlar vatanparvarlikdan dalolatdir.

Davlat ramzlari ham vatanparvarlik fazilatini shakllantiruvchi, shu aziz yurtimizni jonu dildan sevishga undovchi muhim vositadir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning azaliy orzu-istaklari, ezgu intilishlari O'zbekiston Respublikasining davlat ramzlarida o'zining yorqin ifodasini topdi. Chunonchi, Vatanimiz madhiyasi ham uning o'zi kabi aziz va muqaddasdir.

2021-12-10 09:47:10